

**Do`stlik tuman axborot-
kutubxona markazi**

Axborot-bibliografiya xzimati tomonidan



“2 aprel-Xalqaro bolalar kitoblari kuni”ga

ESLATMA




Bolalar kitobi, boshqacha aytganda, bolalar adabiyoti – bolalar va o‘smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop va publitsistik asarlar majmuidir, deya ta’rif beriladi milliy qomuslarimizda. Bunday kitoblarning asosiy qismi badiiy asarlar va albatta, ertak va dostonlardan iborat bo‘ladi.

Shu ma’noda, 1967-yildan buyon 2-aprel – mashhur ertaknavis adib Hans Kristian Andersenning tug‘ilgan kuni butun dunyoda “Xalqaro bolalar kitobi kuni” sifatida nishonlanishi bejiz emas. Bu ma’rifat bayrami

bolalarda kitob o‘qishga mehr uyg‘otish va e’tiborni jalb qilish maqsadida Bolalar va o‘smirlar adabiyoti xalqaro kengashi (International Board on Books for Young People — IBBY) tashabbusi bilan ta’sis etilgan.

Ma’lumotlarga qaraganda, IBBY 1953-yili Shveysariyaning Syurix shahrida YUNESKOning Bolalar va o‘smirlar adabiyoti bo‘yicha xalqaro kengashi tomonidan tashkil etilgan. IBBY Nizomiga muvofiq, har bir davlatda uning milliy sho‘basi tashkil etilishi mumkin. Bunday milliy sho‘baning asosiy maqsadi – bolalar va yoshlar uchun milliy adabiyotni xalqaro miqyosda rivojlantirish va ommalashtirishga ko‘maklashish uchun ijodiy va ijtimoiy kuchlarni birlashtirishdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tashabbusi bilan 2022-yil yanvar oyidan boshlab Madaniyat vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi, Yoshlar ishlari agentligi, Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, Respublika bolalar kutubxonasi, O‘zbekiston noshirlari va kitob savdosi milliy assotsiatsiyasi ishtirokida IBBYda O‘zbekiston Respublikasining Milliy sho‘basi tashkil etildi.



**2-APREL XALQARO
BOLALAR KITOBI KUNI**

IBBY Milliy sho‘balari Xalqaro bolalar kitobi kunining xalqaro tashkilotchisi (homiysi) bo‘lish imkoniyatiga ega. Tashkilotchi davlat – IBBY ijroiya qo‘mitasi tomonidan tanlov asosida aniqlanadi. Tashkilotchi Xalqaro bolalar kitobi kunining tegishli yildagi mavzusini belgilash, butun dunyo bolalariga Murojaatnoma yozish uchun mezbon mamlakatning mashhur muallifini va maxsus afishani loyihalash uchun taniqli rassomni taklif qilish huquqiga ega bo‘ladi. Ushbu materiallardan kitob va kitobxonlikni targ‘ib qilish uchun foydalaniladi.

Xalqaro bolalar kitobi kuni sanasiga asos solinganida, kamina atigi 3 yoshda bo‘lgan. Shuning uchun bolalik yillarimda bunday kitob bayrami borligidan va uning olamshumul mazmun-mohiyatidan mutlaqo bexabar bo‘lganman. Shu boisdirki, ham kichik yoshlilarga, ham kattalarga mo‘ljallangan kitoblarni birdek o‘qiyverganman.

Albatta, aka-opalarim faqat o‘z yoshimga mos asarlarni mutolaa qilishim uchun aynan shunday kitoblarni tez-tez sovg‘a qilib turishardi. Natijada uyimizdagi kutubxona Sharqning ulug‘ shoiru adiblaridan – Kaykovusning «Qobusnoma», Shayx Sa‘diyning «Guliston» va «Bo‘ston», Jomiyning «Bahoriston», Alisher Navoiyning «Mantiq ut-tayr», Gulxaniyning «Zarbulmasal» kitobi kabi nodir asarlar, shuningdek, turli ertak va dostonlar, bolalar uchun yozilgan she‘riy to‘plamlar bilan to‘ldirilgandi.

O‘sha davrda katta akam Samarqand davlat universitetining filologiya fakultetida tahsil olgani G‘arb adabiyoti namunalari bilan ham barvaqt tanishishim uchun qulay imkoniyat tug‘dirgan. Ya‘ni, mashhur hikoyanavis adib Hans Kristian Andersenning “Qor malikasi” nomli ertaklar kitobi bilan bir qatorda, atoqli adiblar Jonatan Svift yozgan «Gulliverning sayohatlari», Daniel Defoning «Robinzon Kruzo», Garriyet Bitcher-Stou qalamiga mansub «Tom tog‘aning kulbasi» singari jahon adabiyotining noyob asarlarini bolalik yillarimdayoq o‘qishga muyassar bo‘lganman.

Bolalikdan ko‘p va sara kitoblar mutolaa qilishning foydasi katta. Bu boradagi shaxsiy tajribamga kelsak, hali o‘n yoshga kirmasimdan oq so‘z boyligim ortib, o‘z fikrlarimni o‘zbek adabiy tilida og‘zaki va yozma alfozda erkin bayon etish layoqatim shakllana boshlaganini yaxshi eslayman.

Misol uchun, oltmishdan oshgan bo‘lsam ham, haligacha dengiz sayohatiga chiqmabman. Ammo, birgina Jyul Vern kitoblarini o‘qish asnosida kema bilan bog‘liq langar, shturval, yelkan, paluba, machta, kayuta kabi yuzlab notanish so‘zlarning har biri qanday ma‘no tashishini o‘n yoshga kirmay turib ham yaxshi bilganman.

Kitobdan olgan bu bilimim hayot yo‘llarida qanday naf berdi, dersiz? Gap shundaki, xuddi shu bilim tufayli Navoiy bobomizning asarlaridagi dengiz sayri va kema bilan bog‘liq g‘aroyib tashbehu timsollarning mag‘zini chaqishim oson kechdi. Qarang: Alisher Navoiy qayerda-yu, Jyul Vern qayerda, biz tug‘ilib-

o‘sgan Movarounnahr dashtlari qayerda-
yu, atoqli fransuz adibi tarannum etgan
ummondagi g‘aroyib sayohatlar qayerda!..

O‘quvchilik davrimizda “Kundalik
daftar”ning oxirgi betida o‘qigan
kitoblarimizning nomini qayd etish uchun
maxsus jadval bo‘lar edi. Birgina yozgi
ta’tilda uy va dala ishlaridan ortib,
o‘qishga ulgurgan kitoblarim ro‘yxati o‘sha
jadvalga doim sig‘may qolardi.



Sinfdosh bolalar, odatda, darslar tugaganidan keyin maktab yaqinidagi
tepalik bag‘rida to‘planardik. Har gal yangi o‘qigan kitobimning ma‘no-
mazmunini ularga berilib so‘zlardim. Tengqurlarim esa og‘zaki hikoyamdan
olgan zavq-shavqini baham ko‘rishardi. So‘ng hammamiz ertaga kutubxonadan
albatta kitob olib o‘qishga ahd etardik va uy-uyimizga mamnun tarqalardik.

Bolalar kattalarga mo‘ljallangan kitoblarni o‘qisa yomonmi? Fikri
ojizimcha, inson dunyoqarashi va fe‘l-atvorining maqbul yo‘sinda shakllanib
borishi uchun mutolaaning yosh bilan bog‘liqligiga e‘tibor qaratish har
tomonlama o‘rinlidir.

Shaxsiy tajribamga ko‘ra, aka-opalarim va o‘qituvchilarimning
cheklovlaridan qat‘i nazar, kattalarga mo‘ljallangan kitoblarni yashirincha
o‘qiganman. Shu holat bilan bog‘liq ikkita kechinmanga to‘xtalaman.

Avvalo, kattalarga mo‘ljallangan kitoblar mutolaasi chog‘ida ayrim so‘z va
atamalarni tushunishda qiynalganman. Masalan, Fransua Rablening
«Gargantuya va Pantagryuel» hajviy romanini o‘qir ekanman, matnda bot-bot
uchragan “pivo” so‘zi nimani anglatishini bilmaganman. Shuning uchun o‘sha
so‘zni o‘zbekchasiga “piyova” deb o‘zimcha talqin qilganman.

Piyova – piyozdog‘ va suvdan tayyorlangan go‘shtsiz suyuq ovqat, ya‘ni
yovg‘on sho‘rva, degani. Aslida, “piyova”ning “pivo”ga hech qanday aloqasi
yo‘q. Lekin yosh bola buni qayoqdan bilsin? Ana shu “bilimsizligim” esa mutolaa
asnosida yangidan yangi jumboqlarni keltirib chiqargan. Ya‘ni, kitob
qahramonlari olis dengiz sayohati yakunida nihoyat ufqda yer ko‘rinayotgani
haqidagi xushxabarni kema sahnidagi bochkadan yog‘och krujkalarda pivo ichish
bilan nishonlaydi.

O‘shanda bolalarcha tafakkurim savollar iskanjasida qolgan. Pivo (mening
talqinimda – piyova) nima uchun qozonda emas, balki bochkada turibdi? Xo‘p,
qozon – bu bochka, deylik. “Krujka” – kosami yoki qoshiq? Yog‘ochdan ekanligi
qoshiqligiga dalolat beradi. Ammo, qozondagi piyovani qoshiq bilan ichib
bo‘lmaydi-ku! Kosa qani?..

Yana bir kechinma – ajnabiy so‘zlar talaffuziga bog‘liq. E‘tibor
berganmisiz, xorijiy tilni astoydil o‘rganishga kirishgan inson ba‘zan hatto o‘z
ona tilidagi eng qadrdon so‘zlarni ham buzib talaffuz eta boshlaydi.



Men ham kattalarga mo'ljallangan kitoblarni o'qishda shunday holatga duch kelganman. Xorij adbiyotining o'zbekcha tarjimasida ajnabiy so'zlar ancha-muncha uchrab turardi. Ularni qanday to'g'ri talaffuz qilish kerakligi yuzasidan kattalarga murojaat qilsam, kitobimni olib qo'yishlari tayin. Shuning uchun asosan televizor va radiodagi xorijiy tildagi ko'rsatuv hamda eshittirishlarda men o'qiyotgan kitobda uchragan ajnabiy so'zlar qanday talaffuz etilishini bilib olishga intilardim.

Bir gal juda qiziq bo'lgan. Quyi sinfning "O'qish" kitobidan berilgan uy vazifasini bajarmadim. Chunki o'qib kelish topshirilgan o'sha "Iskabtopar" nomli mitti hikoyadan ko'ra xorijiy adibning muhtasham romani men uchun chandon maroqli edi.

Afsuski, baholarim ko'p bo'lishiga qaramay, o'qituvchi mendan uy vazifasiga berilgan hikoyani o'qishimni so'ragan. Menga, bir tomondan, uy vazifasini bajarmaganimdan xijolatpazligim, ikkinchi tomondan, ajnabiy so'zlarni o'z-o'zimcha talaffuz qilish olamiga "o'ralashib" qolganim pand bergan o'shanda.

Ya'ni, "iskabtopar" so'zini uch yo'rt marta "iskubator" tarzida "o'qibman". Sinfdoshlarim miriqib kulishdi. Yaxshi hamki, o'qituvchim meni tushundi. Partamning ustidagi salmoqli romanni varaqlar ekan:

– G'ulom, bu so'z ajnabiy emas, o'zimizning o'zbekcha atama, ya'ni "o'z o'ljasini iskab topadi", degan ma'noni beradi. Endi yana o'qib ko'r: "Is-kab-to-par", – deya bo'g'inma-bo'g'in talaffuz qilib, shogirdiga mehr va ma'rifatini namoyon etgandi ilk ustozim...

Mavzuga qaytadigan bo'lsak, jahon xalqlari, shu jumladan o'zbek xalqi bolalar adabiyoti tez aytish, topishmoq, o'yin qo'shiqlari, rivoyat, afsona, ertak, maqol, masal va doston singari aksariyat qismi bolalarga mo'ljallab yaratilgan og'zaki ijod namunalaridan boshlanadi. Shunday asarlarni o'zida jamlagan ayrim kitoblar aslida bolalarga mo'ljallanmagan bo'lsa-da, keyinchalik aynan bolalarning kitobi sifatida e'tirof etilishi ham tabiiy hol. Soha mutaxassislarining fikricha, bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyati – o'zgaruvchan hodisa bo'lib, u kitobxonning yoshi, tarixiy davr va ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liq. Kitobxon yoshini hisobga olish bolalar adabiyotining eng asosiy fazilatlaridandir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda bu muhim omil ko'rgazmalilik, ezgulik va yovuzlik kuchlarining oddiy ko'rinishdagi ziddiyatlariga asoslangan bo'lsa, o'smirlar uchun yaratilgan adabiyotda murakkab hayotdagi murakkab

kishilarning ruhiyati ochila boshlashida ko‘rinadi. Ushbu xususiyat insonning yosh pog‘onalari bilan bog‘liq kitoblar talqinida yanada murakkablashib, kengayib va tobora chigallashib boraveradi. Zotan, kitob – hayot sabog‘idir.

Eng muhimi, shoir va yozuvchilarning asarlari yosh avlodni ezgu insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashi ham farz, ham qarz. Bunda badiiylik bilan bir qatorda ma‘rifiylik, odamiylik yetakchi o‘rin tutishi darkor. Chunki bolalarga mo‘ljallangan kitoblar farzandlarimizni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi lozim.

G‘ulom MIRZO

Kitob – hayotni yaratuvchi murabbiydir

Dunyoni faqat ilm bilan zabt etish mumkinligi bugungi kunda hech kimga sir emas. Ilmni chuqur egallashning yo‘li esa bitta – kitob o‘qishdir.



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mutolaa haqida fikr bildirib, jumladan, shunday degandi: “... hammamiz uchun ayni paytda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan

masala, ya’ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo‘lgan muhabbatini, ularning ma’naviy immunitetini yana-da oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi”.

“Kitob — bilim manbai”, deymiz. Bu isbot talab qilmas haqiqat. Zero, inson bilimni asosan kitob orqali oladi, uning tarbiyasi ham kitob yordamida shakllanadi. Yoshlarimiz badiiy adabiyotlarni o‘qiganda, ularning dunyoqarashi kengayadi, hayotga munosabati o‘zgaradi.

Zero, kitob — qalb chirog‘i, tafakkur qanoti. Ayniqsa, kitobdan taraladigan va elektron nashrdan topib bo‘lmaydigan o‘ziga xos yoqimli hidni tuyib, varaqlash asnosida mo‘jizaviy sahifalarning sirli shitirlashidan ko‘ngil cheksiz zavqqa to‘lgan holda kitob mutolaa qilish, uning mazmuni haqida tengdoshlar bilan fikr almashishning huzur-halovati tamoman o‘zgachadir.

Sohibqiron Amir Temur ta’biri bilan aytganda, “Kitob (bitig) barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni yaratuvchi murabbiydir”. Shu ma’noda, shaklidan qat’i nazar, barcha kitoblar milliy o‘zligimiz hamda umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib etishga xizmat qilishi ayni muddao.

Alisher Navoiy hazratlari deydilarki, “Kitob – beminnat ustoz, bilim va ma’naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai”.


Xalqimizda kitob o‘qib, munosib ta’lim-tarbiya olish, ilm-fan bilan shug‘ullanishning ahamiyatiga doir maqollar ham juda ko‘p. Jumladan, “Kitobsiz aql – qanotsiz qush”, “Baxt belgisi – bilim”, “Bilim – aql chirog‘i”, “Ilm baxt keltirar, bilim taxt keltirar”, “Hunar – oqar buloq, ilm – yonar chiroq”, “Oltin olma, bilim ol, bilim olsang, bilib ol”. Bunday purhikmat naqlarni uzoq davom ettirish mumkin. Bolalarni kitob o‘qishga qiziqtirishda maktablarning roli beqiyos ekanligi hech birimizga sir emas. Maktablarda esa ayni praytda bolalar uchun orziqib kutilgan yozgi ta’til boshlandi. Shu o‘rinda savol tug‘iladi: Ta’tilda ham kitob o‘qishdan to‘xtab qolmasliklari uchun maktablarda qanday tadbirlar rejalashtirilgan?

Yaxshi eslaymizki, boshlang'ich sinfdan boshlab maktab yoki shahar bolalar kutubxonalariga majburiy a'zolikka yozdirib, yozgi ta'til kunlari ham o'quv dasturiga muvofiq sinfdan tashqari o'qishlar uchun adabiyotlar tavsiya qilinardi. Bolalar o'quv yili boshlanganda ta'til kunlari mutolaa qilgan kitoblari bo'yicha o'zaro bellashib, fikr almashardi. O'qituvchilar bolalardan ta'tilda qanday kitob o'qiganligi bilan jiddiy qiziqar edi. O'qigan kitoblari asosida bayon, insho yozdirishar, yaxshi yozilgan yozma ish egasi, albatta, rag'batlantirilar edi. Nega shu an'anani yana jonlantirmaymiz?

2 APREL - XALQARO BOLALAR KITOBLARI KUNI

Ushbu kunda bolajonlar ishtirokida turli-tuman tadbirlar uyushtirilib, maktab, litsey va kollejlarda bolalar adiblari bilan uchrashuvlar, kitoblar ko'rgazmalari hamda bayram dasturlari tashkil etiladi.

Shuningdek, bolalarning ma'naviy dunyosini yanada boyitish mavzusiga bag'ishlangan anjumanlar va ilmiy-amaliy konferensiyalar ham o'tkaziladi. Shunday tadbirlardan biri poytaxtimizdagi Respublika bolalar kutubxonasida bo'lib o'tdi. Tadbirda yosh kitobxonlarga o'zbek va jahon adabiyoti xazinasidan saralab olingan asarlar, xususan she'rlar, qissalar, ertaklar, afsona va rivoyatlar shuningdek zamonoviy adabiy jarayon bilan ham yaqindan tanishtirildi. Xozirda o'quvchilarga sifatli va xozirgi zamon talablari asosida xizmat ko'rsatish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida jaxon axborot resurslari va yangi texnologiyalar vositasidan foydalanish keng yo'lga qo'yildi. Jumladan, kutubxona tomonidan tashkil etilgan www

A decorative border with a repeating floral pattern surrounds the text. The pattern consists of stylized flowers and leaves arranged in a continuous line.

kitob.uz sayti bo'limlari va undagi ma'lumotlar bazasi yanada boyitib borilmoqda. Saytdan kundalik foydalanuvchilar soni xozirgi kunda o'rtacha 4 000 nafardan 5 500 nafarni tashkil etmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida mamlakatimizda matbaa mahsulotlarining xalqaro talablarga muvofiq bo'lishini ta'minlash, bolalar adabiyotini rivojlantirish, o'kuv adabiyotlari va darsliklarning sifatini oshirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Yurtimiz nashriyot-matbaa ijodiy uylari tomonidan chop etilayotgan bolalar kitoblari xalqaro darajada ham e'tirof etilmoqda. Agar kitoblar to'g'risidagi qiziqarli ma'lumotlarga etibor qaratsak Londondagi birinchi xalk kutubxonasiniig asoschisi S.Fenkorning talabi bilan kitob varaqlariii buklagan kishilarga nisbatan jazo chorasi ko'llanilgan. Qonunga ko'ra aybdorlar 7 yil qamoqqa xukm qilingan.Shuningdek eng ko'p jildli kitob «Fransuz ensiklopediyasi» bulib u 1200 jilddan iborat. Yana bir ma'lumot Markaziy Osiyo xalqlari kitobni qadim-qadimdan e'zozlab kelishgan Ushbu hududdagi dastlabki kutubxona eramizning 2-asrida Xorazmda faoliyat ko'rsatgan.

Do'stlik tuman axborot-kutubxona markazi tomonidan ham har yili turli qiziqarli bayram tadbirlari tashkil qilinadi.Bu yil ham bolalar uchun ko`plab muassasa va tashkilotlar bilan qiziqarli tadbirlar tashkil qilindi. Daniya yozuvchisi, mashhur ertaknavis Hans Kristian Andersen tavalludiga bag'ishlab Do'stlik tuman axborot - kutubxona markazi xodimlari tomonidan kitobxonlikni keng targ'ib qilish maqsadida Ultimatum Education o'quv markazining faol kitobxon o'quvchilari ishtirokida "Bolajonlar qalbidan joy olgan adib" nomli tadbir tashkil qilindi. Tadbir davomida o'quvchilar 2 guruhga ya'ni

"Stars" va "Tigers" nomlari ostida bellashishdi. Dastavval yozuvchi haqida ma'lumotlar berildi. So'ngra ma'lumotlar yuzasidan qiziqarli savol javoblar, bahs-munozaralar bo'lib o'tdi. Guruhlar mazaika yig'ishda va adibning ertaklarini kim ko'p yozishda o'z bilimlarini sinab ko'rishdi hamda yakunda do'stlik g'alaba qozondi.



Yoshlikda olingan bilim - toshga o'yilgan naqsh kabidir . 2 - aprel sanasi Xalqaro bolalar kitoblari kuni sifatida nishonlab kelinadi . Bu kunda bolalarni kitob o'qishga qiziqtirish, ularda bu mashg'ulotga

mehr va ishtiyoqni uyg'otish uchun turli tadbirlar, o'tkaziladi. Shu munosabat bilan Do'stlik tuman axborot-kutubxona markazi xodimlari tomonidan 18 - maktabi o'quvchilari ishtirokida " Kitob bilan do'st bo'laman " nomli tadbir tashkil etildi. Tadbir davomida xodimlar tomonidan o'quvchilarga ertak qahramonlarini taniysizmi, topishmoqni toping hamda boshqa qiziqarli o'yinlar o'tkazildi.

**Foydalanilgan manbalar:
Internet manbalardan foydalanildi.**

<http://www.uzreport.uz/>

Tayyorladi: Axborot-bibliografiya xizmati.